Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Surxon tongi

2022-yil
26-yanvar
(chorshanba),
5-son
(17780)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan www.surxontongi.uz t.me/surxon_tongi

MAHALLALARDA

Faollar va nuroniylarning talabchanligi juda muhim

Viloyatimizda mahallabay ishlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish va bu orqali aholi bandligini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli ishlar uyushqoqlik bilan davom ettirilmoqda. Iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli nisbatan og'ir hudud sifatida tanlangan viloyatdagi 195 ta mahalladan oltitasi Angor tumanida joylashgan.

Tumanning birinchi sektor hududida joylashgan "Yuqori Xo'jaqiya" mahallasi ham og'ir hududlar sirasiga kiritilgan bo'lib, mahallada jami 18 kilometr ichki xo'jalik yo'llari mavjud. O'tgan yil davomida ushbu yo'llarning 4 kilometr qismiga shag'al-tosh yotqizilib, qolgan 5 kilometr qismida tosh-shag'al to'kish ishlarini joriy yilda amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bugun mahallada tashkil etilgan keng qamrovli obodonlashtirish hasharida mazkur yo'llarga tosh-shag'al yotqizish ishlari boshlab yuborildi. Ushbu ishlar uchun qirqqa yaqin maxsus texnikalar va tumandagi ko'ngilli ishchi-xodimlar jalb etildi.

Tadbirda ishtirok etgan viloyat hokimi tumandagi hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari bilan suhbatlashib, ularning manzilli dasturlari bilan tanishdi.

— Mahallada parrandachilikni rivojlantirishni yo'lga qo'yishni rejalashtirganmiz. Hozirgi kunga qadar ehtiyojmand, ish bilan band bo'lmagan 30 ta xonadonga tovuq jo'jalarini tarqatdik. Ularga oylik maosh ham belgilangan. Jizzax va Toshkent viloyatidan mutaxassislar ham jalb qilganmiz. Ular fuqarolarimizga parrandandachilikni rivojlantirish orqali tadbirkorlikni yo'lga qo'yishni o'rgatmoqda, — deydi "Kayran" mahallasi hokim yordamchisi Sherzod Yo'lliyev.

Shundan so'ng, viloyat hokimi "Ayollar" va "Yoshlar daftari"ga kiritilib, imtiyozli kredit olgan va hozirda o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkorlar faoliyati bilan tanishdi. Shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilgan borasidagi ishlarni samarali yo'lga qo'yish bo'yicha yoshlar yetakchilariga zarur tavsiyalarni berdi.

— Ish faoliyatimizni xatlov jarayonidan boshlaganmiz. Mahalladagi har bir yosh bilan ishlab, muammosini hal etish, beshta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hokim yordamchilari bilan birgalikda yigit-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va tadbirkorlikka yo'naltirish ishlarini olib borishni rejalashtirganmiz, — deydi viloyat hokimi bilan bo'lgan suhbatda "Navro'z" mahallasi yoshlar yetakchisi Umrzoq Xurramov.

Viloyat hokimi mahalladagi nuroniylar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari bilan ham uchrashdi. Ochiq muloqotda ushbu boshlangan obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari mahalladagi mavjud tuproq yo'llarni toshlash va yaroqsiz ustun hamda simlarni yangilash masalasidagi muammolarni to'liq bartaraf etilganidan keyingina yakunlanishini ma'lum qildi. Mahallada obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari davom etmoqda.

XALQ DEPUTATLARI VILOYAT KENGASHIGA SAYLOV O'TKAZUVCHI VILOYAT SAYLOV KOMISSIYASINING

QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzodni ro'yxatdan chiqarish va saylov byulletenlariga tuzatish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20-, 42-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasining 2022-yil 5-yanvardagi "Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzodlarni ro'yxatga olish to'g'risida" Q-77-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan 42-Katta Vaxshivor saylov okrugidan O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat Kengashidan nomzodi ko'rsatilgan Majidov Baxriddin Axmedovich nomzodlikdan voz kechish to'g'risidagi arizasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzodlar ro'yxatidan chiqarilsin.

2. Joriy yilning 30-yanvar kuni uchastka saylov komissiyalari tomonidan ovoz berish natijalarini sanab chiqishda ushbu nomzod uchun muddatdan oldin berilgan ovozlar (byulletenlar) haqiqiy emas deb topilsin.

3. Shu munosabat bilan 42-Katta Vaxshivor okrug saylov komissiyasi saylov byulletenlaridan ushbu nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismi yozilgan satr ustiga ko'k rangli ruchka bilan to'g'ri chiziq tortish yo'li orqali ro'yxatdan chiqarilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash viloyat saylov komissiyasi kotibi D.Fayzullayev zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya raisi **A.Mustanov**
2022-yil 25-yanvar Q-78 Termiz shahri

OCHIQ MULOQOT

Tibbiyot oliygohining 420 talabasi nega o'qishini boshqa oliygohga ko'chirdi?

Termiz shahridagi Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi majlislar zalida viloyat hokimi To'ra Bobolov tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Hokim so'zining avvalida Termiz shahridagi viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasi yonida joriy yil investitsiya dasturiga asosan barcha qulayliklarga ega zamonaviy jarrohlik markazi qurilishi boshlanishi, buning uchun birinchi navbatda, atrofdagi ayrim uylarni xonadonlar egalarini rozi qilgan holda buzish, shuningdek, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali hududida qo'shimcha o'quv va yotoqxona binolari bunyod etish choralari ko'rilayotganidan yig'ilganlarni xabardor qildi.

Shundan so'ng, tibbiyot xodimlari sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etishga doir taklif va mulohazalarini oshkora bayon etdilar.

— Yaqin yillargacha har bir qishloqda feldsherlik-akusherlik punkti (FAP)faoliyat ko'rsatib, ularda har bir xonadonda yashovchi bemorlar ro'yxati, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan aholi kasalliklari tarixiga oid ma'lumotlar yig'ib borilardi. Bu birlamchi tibbiyot shoxobchalari xodimlari aholi salomatligi uchun bevosita mas'ul edilar, — dedi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot birlashmasi ko'z kasalliklar bo'limi tajribali vrachi Rahmon Muhammadiyev. — Sohada o'tkazilgan islohotlar natijasida FAPlar tugatilib, qishloq vrachlik punktlari tashkil qilindi. Hozirda QVPlar 6-7 ta qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatadi, ammo ular joylashgan manzil bilan ayrim qishloqlar orasi kamida 15 kilometr. QVP xodimlari barcha qishloqlar aholisini qamrab ololmayapti. Shuning uchun FAPlar qayta tashkil etilsa, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati yanada yaxshilanadi.

Sohaning malakali mutaxassisi kuyunchalik bilan tarmoqdagi og'riqli yana bir qator masalalar haqida o'z takliflarini bildirdi. Uning fikricha, avval joylarda tor doiradagi, ya'ni urologiya, terapiya, kardiologiya va endokrinolog kasalliklari bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan bilimdon vrachlar ishlardi. Boshqacha aytganda, har bir qishloq va shifoxonaning eng tajribali va bilimdon jarrohi, akusher-ginekologi yoki terapevti bo'lib, bemorlar aynan shu mutaxassislarda davolanishni istardilar. Keyinchalik tumanlar markazidagi shifoxonalardagina 20-25 o'rinli urologiya, kardiologiya, terapiya bo'limlari ochildi va ularda bemorlar to'liq bo'lmayapti degan vaj bilan moliya bo'limlari mablag' ajratmayotgani tufayli yopilmoqda. Shifokorlar esa turfa kasalliklarni davolashyapti. Shu tufayli bugun tumanlarda tajribali va qo'li yengil jarroh yoki terapevtni topish muammo. Natijada olis qishloqlardan bemorlar sarson bo'lib viloyat markazidagi kasalxonalarga kelishadi. Shifoxonalar zamonaviy tibbiyot asbob-anjomlari bilan jihozlanyapti, ammo tajribali mutaxassis kam. Tibbiyot oliygohlarini bitirib kelayotgan yoshlar QVPlarga umumiy amaliyot shifokori qilib yuborilyapti. Yosh mutaxassislarning aksariyati tajribasiz, ayniqsa, zamonaviy tibbiy anjomlarni ishlatishni bilmaydi. Shuning uchun oliygohning to'rtinchi kursini tamomlagan yoshlarni shifoxonalarga amaliyotga chiqarib, tajribali vrachlarga biriktirish va davolash sirlarini o'rgatish zarur.

— O'tgan yili viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi va shaxsan, To'ra Abdiyevich, sizning amaliy yordamingiz bilan viloyatdagi shifoxonalarga 34 ta gemodializ apparatlari keltirildi. Natijada buyrak xastaliklariga uchragan bemorlarni davolash muammosi hal qilindi, — dedi ochiq muloqotda viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot birlashmasi oliy toifali urolog vrachi Karomatullo Saidalimov.

— Hozir shifoxonalarga davolanish uchun kelayotganlarning qariyb ellik foizi birinchi va ikkinchi guruh nogironlari yoki boshqa toifadagi imtiyozga ega bo'lgan kishilardir. Ular shifoxonada 10 kun muddatda davolanishi uchun dori-darmonga 1,5 million so'm, bir kunlik ovqatlanishiga 14 ming so'm ajratilgan. Vaholanki, oddiy jarrohlik amaliyotini amalga oshirish uchun 10 million so'm kamlik qiladi. Vrachlar shifoxonaga ajratilgan dori-darmondan foydalangach, qolgan dorilarni bemor dorixonalardan xarid qilishga majbur. Buni xalqimiz, xususan, imtiyozga ega xastalar tushunmaydi-da, hamma aybni tibbiyot xodimlari zimmasiga yuklashmoqda. Shuning uchun shifoxonalarga dori-darmon uchun ko'proq mablag' ajratish masalasini hal etish kerak.

— O'tgan o'quv yilida ilm dargohimizning birinchi kursiga qabul qilingan talabalarning 420 nafari bugun boshqa tibbiyot oliygohlariga o'qishini ko'chirib ketdi, — deya ochiq muloqotda jonkuyarlik bilan munosabat bildirdi Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi Kamoliddin Ahmedov. — Ularning ko'pchiligi boshqa viloyatlardan kelgan yoshlar. Sababi boshqa oliygohlarga nisbatan bizda kirish bali pastroq. Talaba yoshlarga o'qishni bitirib, kamida 3 yil muddat ishlab berish sharti qo'yilmas ekan, bu holat hali beri hal bo'lmaydi. Oliygohimizda bir necha markaziy laboratoriya ochib, barcha kasalliklar muolajasi tajribali vrachlar boshchiligida o'rgatilsa, salohiyatli kadrlar ko'payadi. Oliygoh filiali tashkil etilganiga hali ko'p bo'lmay turib, orada ayrim fakultetlar yopilib ketdi, ularni qayta tiklash zarur.

Ochiq muloqotda bugungi kunda viloyatda mehnat qilayotgan shifokorlar jigar sirrozi, endokrinologik va boshqa yuqumli kasalliklar, shuningdek, yurak qon-tomir xastaliklarini davolashda ojizlik qilayotganliklari sababli ko'pgina bemorlar mol-mulkini sotib bo'lsa ham Hindiston, Rossiya, Polsha, Turkiya kabi davlatlarga borib davolanishga majbur bo'layotganligi afsus bilan gapirildi. Viloyatimizda hozir bu kasalliklarni davolash maqsadida Rossiyadan mutaxassislar jalb qilinib, shifoxonalar zamonaviy asbob-anjomlar bilan ta'minlanganligiga qaramay muammo hal bo'lmayotganligi bildirildi.

— Bugun viloyatda yurak qon-tomir kasalliklarini davolashda birmuncha yutuqqa erishilyapti, jumladan, yurak qon-tomirini stendlash, bolalarda tug'ma yurak porogini davolash uchun invaziv usulda jarrohlik amaliyoti bajarilyapti, — dedi kardiojarroh vrach Rustam Madiyev. — Ko'pchilikda uchrayotgan qon-tomir kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan samarali davolash uchun sun'iy qon aylantirish apparati juda muhim. Bu apparatni keltirish va o'rnatish uchun 4 milliard so'm talab etiladi. Mablag' ajratishga yordam berilsa, yurak qon-tomir kasalliklarini shifoxonamizda jarrohlik yo'li bilan davolash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ochiq muloqot jarayonida Termiz tumani ko'p tarmoqli tibbiyot birlashmasi bosh vrachi o'rinbosari Gavhar Bahromova tumandagi sobiq "Yangiariq" shirkat xo'jaligi hududida 14 ming nafardan ziyod aholi yashashi va qishloq xalqining asosiy qismi aynan shu shifoxonaga davolanish uchun borishi haqida so'zlab, shifoxona binosi o'tgan asrning oltmishinchi yillarida qurilganligini, sharoiti haminqadar bo'lib qolganligini bayon etdi. Shuningdek, "Namuna" SIU va "Manguzar" mahallasida joylashgan 70- va 71-sonli oilaviy qishloq vrachlik punktlarida sharoit ham nochorligini, bemorlar chaqiruviga borish uchun avtomashina yo'qligini bildirdi.

Ochiq muloqot yakunida tibbiyot tarmoqlarida to'planib qolgan muammolarni viloyatning o'zida bamaslahat hal qilish va respublika sog'liqni saqlash vazirligi bilan bitadigan masalalarni yaqin kunlarda Prezidentimiz tibbiyot xodimlari bilan o'tkazishi rejalashtirilayotgan yig'ilishda taklif bildirish orqali hal etishga kelishildi.

Usmonali NORMATOV,
Ikrom AMIRQULOV
(surat)

“...Kim uchundir oddiy yuk tushiruvchi, qandaydir aravakash bo‘lib ko‘rinishi mumkin, ammo ikki qizi va ayoli uchun g‘amxo‘r va halol ota, mehnatsevar turmush o‘rtoq, jonkuyar oilaboshi”.

2022-yil 26-yanvar, 5-son
www.surxontongi.uz

Oramizdagi Odamlar

ARAVANING NONI QATTIQMI?

Uilyam Somerset Moemning “Chumoli va chigirtka” hikoyasi qahramonlari aka-uka Jorj va Tomlar tamomila ikki dunyo edi. Biri chumoli misol tinimsiz mehnat qilib, oxir-oqibatda ko‘pam narsaga erisholmagan. Tom esa chigirtka singari umr bo‘yi hech bir ishga qo‘l urmasdan, akasi Jorjning pullarini sovurish bilan yashab o‘tgan. Uning hatto omadi kelib ellik yoshida keksa bir kampirga uylanib, undan juda katta merosni ham qo‘lga kiritadi — hayotini rohatda o‘tkazadi. Jorj esa mehnat qilmasdan ham kishi biror natijaga erishishi mumkinligini ko‘rib g‘azabdan titrardi...

Ming afsuski, bugun hayot bundayin chigirtka misoli ishyoqmas va yalqovlarniki emas. Undayin odamlarning oshig‘i olchi, deya olmaymiz. To‘g‘ri, mehnatning ortidan juda ko‘p narsaga erishish mumkin emasdir, balki ko‘ngil xotirjamligi, halollik ila ro‘zg‘or tebratish zavqini faqat va faqat halol mehnat berishini oddiygina aravakashlik ila ro‘zg‘or tebratayotgan qahramonimiz misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Har safar bozor-o‘charga chiqqanimda bir aravakash diqqatimni tortadi. Xarid bahonasida bir gal uni kuzatdim. Savollar esa tegramda giryon. Aravaning ortidan qancha daromad topsa bo‘larkan, nega boshqa yumushni tanlamasdan yoshgina yigit arava tortishni o‘ziga munosib ko‘rdi?

Bo‘y-basti kelishgan, chaqqongina. Hali u xaridorga, hali bunisiga qarab arava kerak emasmi, deya jovdiraydi. Kim qancha pul beraman, desa ham indamay rozi bo‘lib ketaveradi. Ora-sirada bozorga kirib kelgan yuk mashinasidan kartoshka-piyoz tushirishga ko‘maklashib ham pul topadi. Keyin yana ishida davom etadi.

Eng qizig‘i, kam pul berasizmi, ko‘pmi, boriga baraka, deya cho‘ntagiga soladi. Bu holat meni qiziqtirib qo‘ydi.

Qiziq, uning bir kunda topadigan daromadi ro‘zg‘origa yetarmikan?

— Muammoyim ko‘p, vaziyatim og‘ir edi, — deya gap boshladi o‘zini Shavkat deb tanishtirgan aravakash yigit. — Ammo, o‘zimni bechoraga solmoqni ep bilmadim. Axir, to‘rt mucham sog‘ bo‘lsa. Faqat bir joyda turib yeganga tog‘ chidamas ekan. Kundan kunga ro‘zg‘ordagi narsalarning tagi ko‘rinib qoldi. “Yigit moli yer ostida”, degan naqlga ishonib-ishonmay, tong payti bozorga bordim.

Bundoq qarasamki, qiynalgan bir men emas. Havo sovuq bo‘lishiga qaramasdan, ertalabdan hamma rizqini terib yuribdi. Kimdir yuk mashinalaridan yuk tushirayotgan bo‘lsa, yana kimdir arava tortyapti.

Qo‘llari qabarib ketgan, munkayibgina qolgan bir cholning yoniga yaqinlashib: “Ota, aravangizni qayerdan oldingiz, men ham arava olsam bo‘ladimi?” deya iymanibgina so‘radim. Qariya esa menga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdi.

Bozor atrofida turadigan bir otaxon aravani kunlik ijaraga berarkan. Ijaraga arava olib, ish boshladim. Avvaliga aravakashlik bilan ham pul topsa bo‘larmikan, ishqilib, ishlab topganim choychaqaga yetarmikan, deya ikkilana-ikkilana boshlagan ishim birinchi kuniyoq natija berdi. Kun davomida hali uning, hali buning qo‘lidagi yukka mo‘ltirayman. Nasibam ekan, picha pul ishlab, kechga tomon uyga xarj qilib qaytdim.

Shu-shu bo‘ldi, bozorda aravakashlik, kezi kelsa, hammollik qila boshladim. Ro‘zg‘orimizga baraka kirdi. Aravakashlik qilishdan uyalmayman.

Termiz tumani “Qahramon” mahallasida yashovchi 1989-yilda tug‘ilgan Shavkat Do‘stmurodov bozorda kim uchundir oddiy yuk tushiruvchi, qandaydir aravakash bo‘lib ko‘rinishi mumkin, ammo ikki qizi va ayoli uchun g‘amxo‘r va halol ota, mehnatsevar turmush o‘rtoq, jonkuyar oilaboshi. Ularning ustini butlaydi. Qornini to‘qlaydi. Ehtiyojlarini qondiradi. Bir so‘z bilan aytganda, birovdan kam qilmasdan, oq yuvib oq taraydi.

— Biror narsaga muhtojligimiz yo‘q, — deydi Shavkat Do‘stmurodov. — Halol mehnat ortidan olis hududdagi bozorga qatnab bo‘lsa-da, aravakashlik qilib, ro‘zg‘or tebratayotganimdan hech og‘rinmayman. Ba’zida faoliyatim davomida ko‘ngilni xira qiladigan holatlar ham uchrab turishini yashirmayman.

“Sen aravakash bo‘lsang, ishingni qil, haqqingni olyapsanmi, kerak bo‘lsa, yelkangda ko‘tarasan yukimni” deydiganlarning gaplaridan xafa ham bo‘lmayman. Chunki mehnatning yaxshi-yomoni yo‘q. O‘g‘rilik qilmayapman. Birovning hisobiga kun ko‘rayotganim yo‘q. Ikki qo‘lim, oyoqlarim but, shunisiga shukr.

Ikki marta Rossiyaga ham borib ishlab keldim. Ammo o‘zga yurtda ba’zan och, ba’zan ishsiz sargardon yurgandan ko‘ra oilam, yaqinlarim yonida peshona terim bilan rizq tersam, shu yaxshi ekan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashiyverib, dehqonlar bilan ham, dehqonchilik siri bilan ham anchayin tanishib qolgan Shavkat tomorqasini ham gullatib qo‘ygan. Shavkat ayni damda 4 sotix tomorqasidagi issiqxonada mehnat qiladi. Pomidorlari gullab, hosilga kirayotganidan xursand.

— Yoz paytlari sahar uchdan, qish paytlarida esa beshdan bozorga yetib kelaman, — deydi qahramonimiz. —Chunki, bozorda arava tortaman degan ko‘p, ozgina erinchoqlik qilsam, aravani ijaraga olishga kech qolaman. Arava ololmasam, kun bo‘yi yuk tushirish bilan band bo‘lish kerak-da. Qachon yuk kelsa, shunda ish topiladi, bo‘lmasa bekor o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Men esa bekorchilikda o‘tgan vaqtimni qizg‘onaman.

Hayotda o‘z qarashiga ega, odamiyligi har jihatdan namuna bo‘lgulik, shukronalik va sabr-qanoatda ulg‘aygan aravakash yigitning hayotiy qarashlari, faoliyati davomida orttirgan falsafasiga tan berish kerak.

Birgina Termiz shahridagi “Yashil dunyo” savdo majmuasiga qarashli dehqon bozorining o‘zida Shavkat singari yana 25-30 nafar kishi kunlik rizqini teradi. Bozor nazoratchisi Xo‘janazar Kachalovning aytishicha, aravaning katta-kichikligiga qarab, besh mingdan o‘n ming so‘mgacha kunlik ijaraga olisharkan. Bozorda faoliyat yuritgani uchun esa nazoratchiga 5-7 ming so‘mgacha chek berish ham aravakashlarning yelkasida bor. Aravakashlar esa ayni qishloq xo‘jalik mahsulotlari g‘arq pishgan paytlarida yaxshi daromad topishadi. Savdogarlarning yukini tashib ham, uyiga quruq qo‘l bilan qaytmaydi.

Aravakashlar ham xuddi chumoli singari halol mehnat qiladi. Qahramonimiz ham hayotda chigirtka bo‘lishni emas, mehnatkash chumolidek kun ko‘rishni tanlagan. Hatto chigirtka misollar hayotiga qiziqmaydi, e’tibor ham bermaydi.

Tinim bilmay ishlab, oilasiga nimadir ilinish payida, ammo ularning haqini to‘liq bermasdan, jerkib, joyi kelsa, turtib o‘tadiganlar ham uchrab turadi. Bir aravakash bilan gaplasha turib, uni savdoyimga xalal beryapti aravang, deya turtkilaganlarni ham, basharasini bez qilib, aravakashlarga ta’na toshlarini otayotganlarni ham kunlik safarim davomida ko‘rdim-bildim. Aravaning noni qattiq, ammo halol ekanini angladim.

Adolat MO‘MINOVA

Tarbiya kimning qo‘lida?

Farzand tarbiyasidan ko‘ra nozikroq ish bo‘lmasa kerak. Farzandingizni voyaga yetkazib, bog‘chaga, maktabga, so‘ngra oliygohga yuborasiz. Uning nechog‘lik saviyaga, bilimga va mafkuraga ega bo‘lishida, albatta, ota-ona sababchi ekani esa asl haqiqat.

O‘qituvchilar kitoblar va tashqi omillar esa keyingi o‘rinda turadi. Siz bir dona daraxt ko‘chatini o‘tqazdingiz, parvarishladingiz. Har bahorda tagini yumshatib ozuqa berdingiz. Qadagan niholingiz qiyshiq o‘sa boshlasa, tik yog‘och bilan suyab qo‘yasiz. Siz qanday e’tibor bersangiz, shu darajada yiriklashadi, hosil beradi. Tarbiyani bunga qiyoslashimga sabab, farzandingizga qancha vaqt ajratsangiz, fikrlashiga e’tibor bersangiz, albatta, kutgan hosilingizni olasiz. E’tibor berganmisiz, bolalar bog‘chadagi o‘yinchoqlardan emas, tengdoshlari bilan o‘ynagan o‘yinidan ko‘proq zavqlanadi. Sho‘x o‘yin-kulgiga yo‘g‘rilgan bola tashqi dunyoga qarab ulg‘ayadi. Bo‘yining qanchalik o‘sganligiga emas, atrofdagilarning ta’sirida fikrlashi va so‘z boyligining oshganligiga e’tibor bergandirsiz? Farzand siz-u bizga qarab ulg‘ayadi. Uni koyishdan avval o‘zingizga e’tibor berganmisiz? Olmaning tagiga nok tushmaydi. Bola uchun ilk maktab — oiladir.

Ta’lim muassasalarida o‘qituvchilari, darslar sabab ilmini oshirsa, ijtimoiy tarmoqlarda dunyoqarashini o‘stiradi. Endi tilga kirayotgan bola sizdagi ham salbiy, ham ijobiy, so‘zlarni ayta boshlasa, internet olami ham shunday. Farzandingiz qanday kitob o‘qiyotganligiga yoki telefondan qay yo‘sin foydalanayotganligiga qiziqqanmisiz? Axir, “qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Yoshlarning kamolga yetishi ota-onasiga bog‘liq. Oilangizda qanday atmosfera yaratsangiz, o‘sha havodan nafas olishadi. Salbiy harakatlaringiz ularga yomon ta’sir ko‘rsatishi aniq. Shu bois navnihollarni shunday parvarishlangki, u qiyg‘os gullasin, hosili mo‘l bo‘lsin. Uning ko‘rkamligidan, azimligidan va totli hosilidan insonlar bahramand bo‘lishsin!

Shahlo TANGIROVA

AJRIMGA ASOSAN

2021-yilda Iqtisodiy sudlar tomonidan bankrot deb e’tirof etilgan jami 1 111 ta korxonada tugatish ishlari olib borildi. 2020-yilda bankrot deb e’tirof etilgan tugatish jarayoni 2021-yilga o‘tgan 17 ta korxonaning jami qarzdorligi 20,6 milliard bo‘lib, ushbu korxonalardan to‘rttasining kreditorlik qarzlarini to‘liq qoplab berilgan hamda iqtisodiy sudning tegishli ajrimlariga asosan mazkur korxonalarga nisbatan tugatishga doir ish yurituvi tugatilgan, ya’ni korxonalarning faoliyati tiklangan. Jumladan, Termiz shahridagi “Yangiobod Eksport A” mas’uliyati cheklangan jamiyati, “Mamadullo-Muxiddin Nur Termiz” xususiy korxonasi, Boysun tumanidagi “Boysun Baxtiyoriy” hamda Uzun tumanidagi “Uzun maxsus qurilish-ta’mirlash” xususiy korxonalarining kreditorlik qarzlari to‘liq qoplab berilgan. Qolgan korxonalarga nisbatan tugatishga doir ish yurituvi tamomlanib, davlat reyestridan chiqarilgan. Natijada ushbu korxonalar oldidagi 2,3 milliard so‘mlik kreditorlik qarzlari so‘ndirildi. 2021-yilda bankrot deb e’tirof etilgan korxonalarning 1 041 tasi davlat reyestridan chiqarilgan, 11 tasining qarzdorligi qoplab berilib, faoliyati tiklangan. 8 ta korxonaga nisbatan bankrotlik ishi bekor qilingan. Bundan tashqari balansida mol-mulklari mavjud bo‘lgan to‘rtta bankrot korxonaning mol-mulklarini savdoga chiqarish uchun mazkur korxonalar mol-mulklarni xatlovdan o‘tkazish hamda baholash ishlari olib borilmoqda.

Ravshanjon JO‘RAYEV,
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi mutaxassisi

ZAVQLI TA’TIL

Gulxol XO‘JAMQULOVA

Jarqo‘rg‘on tumanidagi 22-sonli umumta’lim maktabining 8-“A” sinf o‘quvchilari sinf rahbari bilan birgalikda qishki ta’tilni zavqli va maroqli o‘tkazish maqsadida Al Hakim at-Termiziy ziyoratgohi, Termiz arxeologiya muzeyi hamda Termiz shahridagi diqqatga sazovor maskanlarga tashrif buyurdilar. Dastlab, Al Hakim at-Termiziy bobomizning qabrlarini ziyorat qilishdan boshlangan sayohat Termiz arxeologiya muzeyida jam bo‘lgan tarixiy eksponatlar bilan tanishish asnosida davom etdi. Muzeyning davrlarga ajratilgan zallari, undagi noyob topilmalar, ilk temir davriga oid manzilgohlarning maketlari, numizmatika xonasi o‘quvchilarda juda katta taassurot qoldirdi.

Cho‘lda chiroq yoqqan nuroniy

Parda Xudoyorov asli tog‘li Boysun tumanining Rabot qishlog‘idan. Umumiy o‘rta ma’lumotni ham shu oshyondagi 1-sonli maktabda olgan. Ziroatshunos bo‘lish orzusi uning beg‘ubor qalbida ancha erta kurtak yozgan edi. Ana shu maqsad yo‘lida Toshkent qishloq xo‘jaligi (hozirgi agrar unversiteti) institutida o‘qishni niyat qildi. Kirish imtihonlarini a’lo baholarga topshirdi, so‘ng tunni tongga ulab o‘qidi, izlandi. Shu tariqa 1973-yilda agronom mutaxassisligiga ega bo‘ldi.

Omon SHUKUROV,
O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a’zosi

Yosh, iqtidorli ziroatshunos Boysunning xushhavo tabiati, so‘lim bog‘larini cho‘lda ham ko‘rishni istardi. Shu boisdan Boshqo‘ton yerlariga qadam qo‘ydi. Cho‘l kezdi. Cho‘lning olov purkagan garmseli, uvillab u yoqdan bu yoqqa esadigan shamoli pisand bo‘lolmadi. U ishni Muzrabot tumanidagi “Iskra” shirkat xo‘jaligida agronomlikdan boshladi. Oradan sal vaqt o‘tgach, bosh agronom vazifasi munosib ko‘rildi. Parda Xudoyorov ishlardi, ishlaganda ham yigitlik kuch-g‘ayratini qo‘riq va bo‘z yerlarini o‘zlashtirishga baxshida etardi. Halol mehnat qilardi. Bu borada doril-fununda olgan bilimi unga astoydil asqotardi. Kunlar o‘tgan sari qum barxanlari o‘rnida ufqqa tutash ekin maydonlari paydo bo‘la boshladi. Ko‘rib dil yayrar edi. G‘alladan ham, sholidan ham yuksak xirmonlar barpo etilardi. Parda akaning nomi yetuk, malakali mutaxassis sifatida ham, ishbilarmon, tadbirkor rahbar sifatida ham el og‘ziga tushdi, hurmat qozondi. U bosh agronomlikdan “Iskra” shirkat xo‘jaligi raisi vazifasiga ko‘tarildi. Qaysi bir soha oqsasa, uni yuksaltirish Parda Xudoyorovning chekiga tushardi. Mas’uliyatli vazifa unga ishonib topshirilardi. Parda aka mehnatni shon-sharaf va qahramonlik ishi deb bilganligi uchun “Iskra” shirkat xo‘jaligiga o‘n yil rahbarlik qildi. So‘ng tumandagi “Komsomolobod” shirkat xo‘jaligiga besh yil rais bo‘ldi. Uning ishchanligi tufayli iqtisodiy tanazzulga yuz tutgan shirkat xo‘jaligida barcha tarmoqlar ravnaq topdi, o‘nglandi. Tumandagi at-Termiziy nomli xo‘jalik ham qoloqlik botqog‘iga botib qolgandi. Parda Xudoyorov bu xo‘jalikka ishga yuborilgach, dastlabki yilning o‘zida paxta, g‘alla va sholi yetishtirish rejalari 110-125 foizgacha oshirib uddalandi. 2011-yilning bahorida bo‘lib o‘tgan “Nuroniy” jamg‘armasi tuman bo‘limining yig‘ilishida Parda aka kengash a’zolarining yakdilligi bilan jamg‘arma raisligiga saylandi. U faoliyatining dastlabki kunidayoq shijoat bilan ishga kirishdi. Nuroniylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xalqimizga xos bag‘rikenglik, o‘zaro hamkorlik, saxovatpeshalik, mehr-oqibat kabi insoniylik fazilatlarini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratdi. Parda Xudoyorov o‘z ishining ustasi, qadami qutlug‘ keladigan mutaxassis, ezgulikka to‘la qalbi bor rahbar edi. Afsuski, “COVID-19” elning jonkuyar o‘g‘liga ham soya soldi. Hanuz o‘rni sezilib turgan fidoyi insonning shirin suhbatidan bahramand bo‘lgan kishilar Parda raisni aslo unutmaydi.

E’LON

Termiz shahridagi “Muxammadiyev Xudoyor Xoliqulovich” advokatlik byurosi advokati Muxammadiyev Xudoyor Xoliqulovichga advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilish muddati hamda advokatlik maqomi tugatilganligi **MA‘LUM QILINADI.**

Viloyat Adliya boshqarmasi

1998-yilda Termiz shahridagi 4-umumta’lim maktabi tomonidan Alavdinov Qaxramon Urolovichga berilgan 283985 raqamli shahodatnoma yo‘qolganligi **MA’LUM QILINADI**.

Surxondaryo viloyati IIB YHXB tomonidan Xudaydatov Norqul Rayimovichga berilgan AF 3789774 raqamli haydovchilik guvohnomasiga tegishli taloni yo‘qolganligi **MA’LUM QILINADI.**

"...Bir zamonlar Termiziy desa Iso Termiziy va Hakim Termiziyni ham bitta deb bilganlar uchun aytiladigan va karaxt qiladigan yangiligimiz bor".

Imm uniteti Islom bo'lsa...

Termizdan nur...

Agar islom dini bo'lmaganida, sog'lom tishlar uchun qilingan harakatlaringiz ham zoye ketardi. Chunki tish misvoqi ham islom dunyosining mahsuli. Ishonavering, ilk ulug'farmatsevtlar ham muslimlar. Demakki, din — ilmdir, din — e'tiqod, din — mukammallik.

Shu bois dunyoda asliyat va mohiyatni anglaganlar dini — islom diniga e'tiqod etuvchilar soni kun sayin oshib borayotir. E'tiqod asnosida olimlar ta'kid etgan haqiqatlar borki, dinni noto'g'ri talqin etish, islomofobiyani keltirib chiqarishga urinish holatlari islom atrofida juda ko'p kuzatiladi. Va lekin har qanday savolning javobi O'zidadir. Buning uchun ziyraklik, zehn va albatta, teran nigoh zarurat. Yana anglangan haqiqat shuki, ilm yagona najot deb bilingan yerda yuksalish va ma'nan ulg'ayish bo'ladi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ayni shu maqsadda tashkil etilgan deyish mumkin.

TAMADDUN TERMIZNI ZIYORAT ETAR...

Madinat ur-rijol bugun ilm bobida muhim manzil. Zero, islom olamining ahamiyatli faqihlari, hadis ilmining mohir bilimdonlari, diniy va dunyoviy ilmlarning zakiylari yetishib chiqqan Termiz shahrida bugun tadqiqot ishlari baravj. Termiziylar ma'naviy merosini o'rganishga sidqidildan bel bog'lagan olimlarning salohiyati ham sayqal topgan. Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish bugunning dolzarb masalalaridan ekanligini anglaganlar bee'tibor qoldirmagan jihatlar faxr etgulik. Markazda "Hadisshunoslik", "Manbashunoslik", "Xalqaro aloqalar" va "Ziyorat turizmini rivojlantirish ilmiy bo'limi" kabi yordamchi bo'limlar mavjud bo'lib, Rossiya, Marokash, AQSH, Saudiya Arabistoni, Turkiya,

Hindiston, Tojikiston va Qirg'iziston kabi davlatlar bilan ilmiy-amaliy hamkorlik o'rnatilgan. Hamkorlik o'z nomi bilan yuksak natijalarga erishishda hamjihatlikni ifoda etayotir. Birgina o'tgan yilning o'zida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Termiziy va boshqa allomalarning merosiga oid 6 ta kitob tarjima, 2 ta raddiya, 10 ta xalqchil risoladan iborat jami 18 ta kitob va risolalar nashr etildi. Shuningdek, 19 ta termiziy allomalar merosi, o'quv qo'llanmalar, tahqiq va ilmiy-ommabop kitoblar nashr uchun tayyor holga keltirildi. Ziyo ulashuvchi kitoblar soni ko'paygani — mualliflarning esa kitoblar sifatiga alohida e'tibor qaratgani ahamiyatli. Markazning 3 nafar ilmiy xodimi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Demakki, bugun ham termiziy daholar olimlarni inkishof etayotgan ekan, davr va asrlar silsilasi zarracha ta'sir etmagan, ahamiyatini yo'qotmagan.

ASARLAR ASINING QO'LIDA

Tadqiqot markazining olib borayotgan keng ko'lamli ishlari aholi ishonchini qozongani ularning so'nggi yillarda kutubxona fondining noyob asarlar bilan boyishida ko'rinadi. Zero, ota-bobolaridan meros qolgan, qolaversa, zamonning taloto'plarida ham ko'z qorachig'iday asralgan ma'naviy meroslarni kutubxonaga topshirishning o'zi bo'lmaydi. Vohadoshlarimizning uylarida saqlanib kelinayotgan ajdodlarimiz merosiga oid 82 ta qo'lyozma va toshbosma asarlarning kutubxonaga topshirilishi evaziga kitob fondi yana noyob asarlar bilan boyidi. Bu boylik tadqiqot markazining kelgusi faoliyatida yana yangi topilmalarga asos bo'libgina qolmay tadqiqiy ishlar bilan jahon hamjamiyatini og'ziga qaratadigan olamshumul voqeaga do'nadi. Shuningdek, markaz kutubxonasida yurtimiz

va xorijda saqlanayotgan termiziy allomalar merosiga oid 500 dan ortiq qo'lyozma asarlarning elektron bazasi shakllantirildi. Bir zamonlar Termiziy desa Iso Termiziy va Hakim Termiziyni ham bitta deb bilganlar uchun aytiladigan va karaxt qiladigan yangiligimiz bor. Termiziy nisbasi bilan ijod qilgan tarixiy shaxslarning o'zi, hozirgacha aniqlangani, 200 nafardan ortiq. Shunchaki nisbasi aniqlar emas, ular haqida turli manbalar turlicha so'zlaydi, qolaversa, har birining dunyoning turli qismlarida asrab kelinayotgan o'nlab ijodiy merosi bor. Bu aniqlangan ma'lumotning o'zi markaz xodimlarining bosh qashishga vaqti yo'qligini ko'rsatib beradi. Fors va arab tillaridan tarjima qilinayotgan termiziy allomalarning ilmiy merosi yosh avlodni, ilm ahlini befarq qoldirmaydi.

Bugungi kunga qadar markaz ilmiy xodimlari tomonidan Hakim Termiziyning "Tahsilu nazoiril Qur'on" (Qur'ondagi so'zlarning turlicha ma'nolarini o'rganish), Abu Ja'far Termiziyning "Tafsir Yahyo ibn Yamon Nofi' ibn Abu Nu'aym Muslim ibn Xolid Zanjiy Ato Xurosoniy", "Muhammad Hakim Termiziy risolalari", "Kitabul ilal (hadis illatlari haqida risola)", "Ash-Shamoil al-Muhammadiyya", "Sunani Termiziy tarjimasi" 1-2-3 jildlar, "Tasmiyatu as'hobi rasulilloh" ("Rasululloh safdoshlari"), "Al-Manhiyot" (Qaytarilgan amallar), "Sulosiyotul Buxoriy" singari 25 ta asar shular jumlasidan. Shuningdek, allomalar merosiga oid 20 ga yaqin ilmiy va ommabop kitoblar tarjima qilinib, "Buyuk termiziylar" rukni ostida 10 ta kichik hajmdagi xalqchil risola chop etildi.

TAQOZO ETGANI — OLIYGOH

Ilmiy salohiyat oshgani sari kadrlarga ehtiyoj oshib boradi. Termiz shahrida islom dinidan saboq beruvchi oliy ta'lim muassasasiga ehtiyoj kechagina paydo bo'lgan emas. Xalq orasida e'tiqodi baland aholi vakillari yetarlicha. Dindan saboq beruvchi ta'lim muassasalari esa deyarli yo'q. Shu bois el orasida mulla deb tan olganning atrofida jam bo'luvchilar, to'g'ri-noto'g'ri bo'lsa-da, bosh silkib tasdiqlovchilar ko'payib qolgandi. Ko'z yumib bo'lmaydigan haqiqat shuki, diniy savodi yo'q, biroq qiziqishi yuqori avlodni dinni noto'g'ri talqin qilib, turli aqidalarga sudraganlar ham kunda-kunora eshitiladigan gap ediki, yangilik bo'lmay qolgandi. Lekin odamlar bu voqeaga ko'p bora duch kelsa-da, yana o'shanday "mulla"larga ishonavergani hali unutilgan o'tmish emas. So'nggi yillar oshkoralik, diniy e'tiqodni to'g'ri qabul qilish holati kengaydi. Quvonchlisi, bu ishlar bardavom. Endi navbat oliy islom ta'lim muassasasi...

— 2023/2024-o'quv yilidan Termiz shahrida faoliyatini boshlashi kutilayotgan oliy islom ta'lim muassasasida olib boriladigan ilmiy faoliyat, mutaxassislik va ta'lim tizimi haqida dasturlar tuzilayotir, — deydi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, hadisshunoslik ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori Shukurillo Umarov. — Musulmonlar idorasi, viloyat hokimligi, diniy qo'mita bilan birgalikda bu borada ish olib borilmoqda. Aslida hududda kadrlarga ehtiyoj katta. Qolaversa, dinni anglab, sof islom aqidasini targ'ib eta oladigan, botil g'oyalardan xoli, fikri teran kadrlar masalasi dolzarb.

Shuningdek, masalani oliy ta'lim va tarbiya ko'rganlargina, ilmi yuksaklargina uddalay oladi. Bejiz xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi uchun Termiz tanlangan emas. Va yoki Imom Termiziy nomi bejiz berilmagan. Ulug'allomalar yurti Termiz — necha-necha muarrixlar, mutasavvuflar, faqih-u ulug'muhaddislar beshigi tebrangan zamin.

Termizda oliy islom ta'lim muassasasi ish boshlar ekan, dinni idrok etuvchilar soni oshadi. Yot g'oyalardan xoli, immuniteti islom bilan sug'orilgan avlod shakllanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Qur'onni eshitish, eshita olish yuksak ma'naviyat, ma'rifat. Qur'on hech qachon yomonlikka da'vat qilmaydi. Agar Qur'oni karimni eshita olsak, eshittira olsak, bu muvaffaqqiyat bo'ladi. Elimizga nur keladi".

NIYAT XOLIS — NAVBAT OLIS

Madrasa tasarrufida tashkil etilgan "Qur'on va tajvid kursi"ga navbatda turganlar taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra to'rt yarim mingdan oshgan. Bu sonning oshgani kadrlar yetishmasligi va yoki tahsil uchun sharoit yo'qligi bilan o'lchanmaydi. Bu shunchaki kursda o'qishning sifati talab darajasida, qolaversa, elning ishonchiga sazovorligidan. To'lovini to'layman, 144 soatlik kursda arab alifbosini o'rganib, o'qish va Qur'ondan oyatlar yodlayman deganning sanog'i yo'q. Boshqa viloyatlardagidan ko'ra keyinroq faoliyat boshlaganiga qaramay Qur'on savodxonligini istaganlarning hech biri ta'limdan norizo bo'lgan emas. Qisqa vaqtda mingga yaqin fuqaroning diniy savodxonligi oshirildi. Shuningdek, talab oshgani sabab madrasada bu borada ham yechimlar ishlab chiqilgan.

— Diniy faoliyat olib borish uchun bu kurslar yetarli bo'lmasa-da, aholi orasida talab yuqori. Diniy-ma'rifiy savodxon kadr bo'lish uchun esa oliy ta'lim zarur. Qiziqish yuqori ekanligi bois kurslar uchun sinfxonalar tayyor holga keltirilgan, kadrlar masalasi ham hal etilgan, — deydi Shukurillo Umarov. — Navbatning ko'p ekanligi anchagina tuyulsa-da, uzog'i ikki-uch yilda bu son keskin kamayadi degani. Bir yilda qariyb 800 nafarga yaqin yigit-qizni o'qitish quvvatiga egamiz.

Yetti pushtini bilmagan avlod shakllanayotgan davrda diniy va dunyoviy ilmi yuqori avlod ulg'ayishini istagan madrasa xodimlari sidqidildan saboq berayotir. Bu ta'lim tizimi o'zini to'laqonli oqlagani esa murojaat etuvchilar soni bilan bemalol o'lchanadi.

— Odamlar o'zini, o'zligini angladi. Haqiqat qayerda degan savolga javobni islomda topmoqda. Haqiqiy, ilohiy yo'l islom ekanligini tushunib yetishmoqda. Ota-bobosi islom dinidan bo'lmagan odamlarning e'tirof etishidayoq, so'nggi yigirma yilda islomga e'tiqod qiluvchilar sonining 2 milliarddan oshganida ko'rish mumkinki, dinimiz tinchlik va ma'rifat dini, — deydi markaz direktori. — Dinni targ'ib qilayotganlar orasida odamlarning turfa millat va elat vakillarining borligi ham haqiqat. Kezi kelsa, dinimizni oyoqosti etuvchilar o'zlari bilmagan holda islomni targ'ib etayotirlar. Odamlar muammoning mohiyatini bilishga intilib, islom bilan tanishmoqda. Ko'ngliga kirgan nur esa iymonga eltayotgani shundan.

E'TIBOR — E'TIROFDIR

Imom Moturidiy, Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazlarining faoliyat yurita boshlagani, O'zbekiston islom svilizatsiyasi markazi, Mir Arab oliy madrasasining ochilishi yurtimizda dinga berilgan e'tiborning samarasidir. Haqiqiy e'tiqodiga qaytgan, qaytish asnosida dinni anglagan fuqarolar uchun bu imkoniyatdir. So'nggi yillar tajvid kurslarida 20 mingdan ziyod Qur'on savodiga ega fuqarolar tarbiyalandi.

— 2018-yilda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida faoliyat yuritayotgan vaqtimda Oksford islom tadqiqotlari markazi grantiga hujjat topshirgandim. O'sha yili "Imom Termiziy" xalqaro stipendiyasiga ham sazovor bo'lganman. Keyin Allohning karomati bilan ishim Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida davom etdi. Bu yil esa grant yuzasidan Londonda malaka oshirish nasib etadi. Aslida har qanday ilmiy yutuqqa erishish katta ilmiy mashaqqat evaziga sodir bo'ladi. Oksfordda "O'rta asrlarda O'zbekiston hududida islom dinining tarqalishi" mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlarimni davom ettirish hamda ilmiy ma'ruzalarim bilan ishtirok etishni rejalashtirganman, — deydi hadisshunoslik ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori Sh. Umarov. — Bu grant birgina mening emas, markazning ham yutug'i deb bilaman. Chunki malaka oshirish asnosida xalqaro aloqalar mustahkamlanadi. Markaz tadqiqotchilarining Oksfordda malaka oshirishida bu grant debocha bo'lishiga ishonaman.

Bugun uchta tilda: turk, arab, ingliz tillarida o'z ona tilidagidek bemalol ma'ruza qila oladigan Shukurillo Umarovning yoshlarga aytari bor. Har qanday e'tibor aslida e'tirof ekanligini, har qanday sohada yaratilgan sharoit o'sha sohaning mutaxassisi kelajagi uchun bo'lgan ishonchdan dalolat berishini anglagan borki, daqiqasidan huzur topadi, unum istaydi.

— Yevropa aholisi nima uchun dinga qiziqyapti. Ularning maqolalari, dinimizning yevropalik da'vatchilari aytayotgan fikrlar bilan yaqindan tanishish maqsadida ingliz tilini o'rganishga qaror qildim. Ilmning erta kechi yo'q. Odamzot tabiati shunday, har qanday inson boshqa insondan ibrat oladi. Har sohaning o'z muxlisi bor ekan, ilmining ham, ilm ahlining ham havasmandi, muxlisi bor. Yoshlarning ilm olishga istagi bo'lsa, hech qachon kech bo'lmasligini anglamog'i lozim.

Suhbat asnosida o'zi ham ustozlariga havas qilganligini ta'kid etayotgan Shukurillo Umarov bugun shogirdlik ila ustoz ham.

HAMKORLIKNING "YO'L XARITASI"

Yuqorida ta'kidlangani kabi markazning bir necha davlatlar bilan ilmiy hamkorligi, hatto memorandumlari bor. Imom Termiziy va termiziy allomalar ma'naviy merosini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish maqsadida Markaz tomonidan o'ndan ziyod xalqaro va mahalliy konferensiya, ko'rgazma, anjuman va davra suhbatlari tashkil etilib, xorijdagi nufuzli universitet va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yana o'nga yaqin memorandumlar imzolanishi reja qilingan. Shuningdek, Markaz ilmiy xodimlari yuzga yaqin xalqaro onlayn konferensiya va seminarlarda o'z ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etadilar. Markaz O'zbekiston bilan Turkiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Pokiston davlatlari o'rtasida hamkorlikka doir tuzilgan "Yo'l xarita"larida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tadqiqot ishlarini amalga oshiradi. Turkiya safari ham "yo'l xaritasi"dan joy olgan.

— Turkiya safaridan ko'zlangan maqsadlarimiz bor. Mart oyida Turkiyada jamoamiz bilan bo'lib, Turkiyadagi islom san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi bilan hamkorlikda "Sunani Termiziy" kitobining uch jildlik sharhini taqdimot etish rejalashtirilgan. Qolaversa, aprel oyidan 2022-2026-yillar davomida Turkiyadagi kutubxona fondida saqlanayotgan termiziy allomalarning kitoblarini tadqiq etish, o'rganish, nusxa ko'chirish, shuningdek, katalogini tuzish maqsad qilingan. Shuningdek, yoz oylarida "Termiziy allomalarning islom tamaddunida qo'shgan hissasi" mavzusida ilmiy konferensiya o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

MUTOLAADAN ORTIB...

Aholining ijtimoiy tarmoqlar hamda televideniye, radioga bo'lgan ehtiyoji susaymagan ekan, zamon senga boqmasa, sen zamonga boq qabilida ish tutganlar yutadi. Yuqori saviyadagi diniy-ma'rifiy mavzularda sifatli ko'rsatuvlar, videoroliklar va eshittirishlar tayyorlash maqsadida ilmiy-tadqiqot markazida media studiya tashkil etildi. Mazkur studiyada 2022-yil davomida "Diniy-ma'rifiy suhbatlar", "Termiziylar merosi", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Voha ziyoratgohlari" kabi ruknlar ostida ko'rsatuv va lavhalar tayyorlanadi. Shuningdek, "Shamoili Muhammadiyya" va "Sunani Termiziy" asarlari sharhiga asoslangan ko'p qismli ko'rsatuvlar tayyorlanib, keng jamoatchilikka oddiy, xalqchil tilda tushuntirib borish maqsad qilingan. Demakki, endi ma'rifat, termiziylarning boy merosi dunyo kutubxonalarida tadqiq etilishni kutib yotmaydi. Qolaversa, elga ilm ulashgan kitoblar xalqchil tilda yana "yashay boshlaydi".

Xurshid KARSHIYEV

"... Odamlarni, qiyofalarni kuzataman. Ko'zlaridagi samimiyatni, beg'uborlikni, takabburlikni chizgim kelaveradi".

2022-yil 26-yanvar, 5-son
www.surxontongi.uz

Shunday ijodkor bor...

DUNYODAN BO'LAKLAR TERGAN MUSAVVIR

Quyosh zarrin nur sochayotgan palla, oltin kuz tarovati... bepoyon dalalarda oltin tusga kirib qolgan bug'doy boshoqlarining tovlanishi, shovullashi... bularning bari oltin rangni eslatadi. Ha, bu rang — quvonch rangi, iliqlik va ishonch rangidir.

Rassom Suvonqul Ahmedov chizgan surat qarshisida turib, qorishiqlaridan paydo bo'lgan ranglar yuragimga bir qadar yaqinligini tuydim. Go'yo hayotdan, dunyodan bir bo'lak yulib olingan-u suratga joylangan.

Suvonqul Ahmedov ana shunday bo'laklarni chizishni yaxshi ko'radi. Bu suratlar qandaydir tirik, jonli. Kartinadagi daraxtlar mayin silkinadi, quyoshning nuri ko'zlaringizni qamashtirib yuboradi.

Muallifning o'zi ham musavvirlikka muhabbat qachon qalbiga in qurganini bilmaydi. Akalari maktabdan shoshib kelib, qo'llariga qalam olib chizayotganida bolakayning turli ranglardagi qalamlarga mehri tushdimi, ularni jajji qo'llarida tutib, o'zi ham chizib ko'rdi. Balki bu ishtiyoq onasi Bibigul momo gilam to'qiyotganda, sariq, yashil rangdagi iplardan kelishtirib naqsh solayotganda hayrat to'la ko'zlari ila boqayotgan nigohlardan o'tib, yuragigacha yetib borgandir, qandaydir tug'yon olov yoqqandir. Nima bo'lganini bilmaydi. Eslagani — qalam va qog'ozga oshno tutingani. Bilgani — faqat va faqat chizgani. Dunyoga musavvir ko'zi ila boqqani. Keyin anglagan haqiqati shu bo'lganki, Surxonning oftobchiqar tarafida yuksalgancha Bobotog' ko'rinib turgan ajoyib manzil Anbarsoy nomli ona qishlog'i bu ilhomlarga doyalik qilgan, o'zicha g'oyibdan o'ziga ustoz bilgan mashhur rassomlar Ro'zi Choriyev, Rahim Ahmedov, Mannon Saidovlarning ijodiy ishlarini kolleksiya qilgan.

U Denov tumanidagi 10-umumta'lim maktabida o'qib yurganidayoq yosh rassom sifatida yaxshigina tanilib qolgan edi. Maktabni bitiriboq (1974-yil) rassom bo'lishni ko'ngilga tugib, chizib yurgan suratlarini jamladi-da poytaxtga yo'l oldi.

— Tasodifmi, taqdirmi bo'lib, respublika rassomlik bilim yurtida Ro'zi Choriyevni uchratib qoldim, — deydi Suvonqul Ahmedov. — U chizganlarimni ko'zdan kechirdi. So'ng, o'qishga hujjat topshirishga kechikkanim sababli keyingi yil kelishimni aytib, Surxondaryoda shogirdi iste'dodli rassom Xo'shboq Yo'ldoshev bilan uchrashishimni tayinladi. Bu uchrashuv ko'nglimga olov yoqdi. Qaytib Ro'zi Choriyevning shogirdiga shogird tushdim. Bir yilga yaqin muddat davomida surat chizish metodikasini o'rgandim. Rassom uchun maktab ko'rish muhim. O'z ishida usta bo'lishi kerak. Xo'shboq Yo'ldoshev bilan juda ko'p suratlar chizdik, birgalikda tabiat qo'yniga chiqar, manzaralarni oqqa tushirardik.



Rassomchilikning ilk sabog'ini Xo'shboq Yo'ldoshevdan olib, keyingi yili yana poytaxtdagi rassomlik bilim yurtiga kelgan Suvonqul Ahmedov chizgan suratlarini o'qituvchilar yoyib, tomosha qila boshladi. Bir zumda yosh rassom ijodi ustida o'qituvchilar noyob iqtidor kashf etilganini ta'kidlab, katta qiziqish bilan suratlarni muhokama qila boshlaydi. O'sha yili yosh rassom o'qishga qabul qilindi.

Otashqalb tog' farzandi buyuk rassom Ro'zi Choriyevning e'tiboriga tushgandi. O'shanda Ro'zi Choriyev Suvonqulning suratlarini tomosha qila turib: "Suvonqul, doimo tabiatan toza bo'l", deb aytadi. Ustoz rassomga Suvonqul Ahmedovning qolipga solinmagan nazar ila chizilgan suratlari manzur bo'lgan edi.

— Ro'zi Choriyev tuyg'ularni jilovlashni, chizishda ham o'zi uchun qoida yaratib olib, cheklovlar ila chizishlarini yoqtirmas edi, — deydi ustozini xotirlab shogird. — U kishi bolaqalb, to'g'riso'z va ishonuvchan, samimiy bir inson edi. Biz shogirdlar uchun eshigi doimo ochiq bo'lardi. Ustaxonasida ishlardik, yashardik hisob. Uni ijod ustida tomosha qilsangiz, chizayotgan jarayonni kuzatsangiz ham bu uslub, bu yo'nalish, eskizlarning oqqa ko'chishi, rang tanlash, bari bir butunlikda mahorat, iste'dod deb atalsa kerak.

Ijodkor ijoddan yiroq muhitda yashasa ham ijoddan uzoqlasha olmas ekan. Baribir chizgisi kelaveradi. Mo'yqalami, bo'yoqlarini qo'msaydi, sog'inadi. O'qishni tamomlamay harbiy xizmatga otlanib, Ukrainaga borib qolgan askar yigit xizmat chog'ida ham mo'yqalamini qo'ldan qo'ymadi. Saf tortgan askar, mashg'ulotlar jarayoni, xullas, hech bir holat rassomning nazaridan chetda qolmasdi. Ro'zi Choriyev o'sha yerda ham shogirdini o'zining qadrdon do'sti xalq rassomi Yuriy Bajenov bilan tanishtirdi. Shundanmi, askar yigitga sovuq o'lka ham ko'ngilga yaqindek bo'lib qoldi. Bajenov bilan tez-tez uchrashib, ustaxonasiga borib turdi. Ba'zi kompozitsiyalarni o'rgandi.

Suratning tili yo'q, ammo so'zlayveradi, tasvirlardan ma'no uqasiz. San'at millat, til tanlamaydi. Uning shunday umum tili borki, tomosha zavqi ila anglaysiz, tushunasiz. Suvonqul Ahmedov xizmatni ham, rassomlik bilim yurtini ham tamomlab, Ro'zi Choriyev bilan Rossiyaga yo'l oladi.

— Bizni Ro'zi akaning do'stlari juda iliq kutib olishdi, — deydi rassom. — Mehmonnavozlikni joyiga qo'yishdi. Petrogradda ham shunday bo'ldi. U yerda mashhur rassom Yuriy Niprinsev bilan tanishtirib, ustaxonasiga joylashtirdi. Leningrad badiiy akademiyasida erkin tinglovchi sifatida darslarni tinglay boshladim. Bu darslar men uchun katta hayot va ijod maktabi bo'ldi. Rus klassik maktabi bilan yaqindan tanishdim. Ijodni, chizishni to'xtatmadim. Onamning sog'ligi yomonlashib, Surxonga qaytishga majbur bo'ldim-u imtihonlargacha qola olmadim.

Ona yurtga qaytgan rassomning ijodi cho'qqisiga chiqqan davrlar edi. U tinimsiz chizdi. Chizganlari bilan ko'rgazmalarda ishtirok etdi. Ajoyib kartinalar rassom nomini mashhur qila boshladi. Rassomlar uyushmasiga a'zo ham bo'ldi.

Mehr jo bo'lgan har bir surat rassomning farzandidek gap. Shuning uchunmi Suvonqul Ahmedovning suratlariga mehri bo'lakcha, ammo uning uchun 90-yillarda chizgan "Dala" deb nomlangan surati — eng yaxshisi. Unda keng dala, moviy osmon yuzida bulutlar. Cho'pon bola nay chalyapti. Qo'ylar suruvi. Rassom har safar ushbu suratga ko'zi tushsa, uzoq tikilib qoladi. To'siq va cheklovlarsiz go'zal manzara. Unda Vatanga mehr ufurib turgandek, o'zgacha ruh, kayfiyat hukmron.

— Rassom xoh tabiat qo'ynida, xoh ustaxonada kayfiyatga kirib olsa, bas, uni hech narsa to'xtata olmaydi, — deydi Suvonqul Ahmedov. — Hech qachon izlanishdan to'xtagan emasman. Eskizlar chizib olaman, kompozitsiyalar qilaman, yechim qidiraman, to'xtadingizmi, ijodda qotib qolasiz. Barcha janrlarda chizaman-u, ammo eng yoqqani portret. Qiyofada gap ko'p. Unda sir-asror yashringan bo'ladi. Yuz inson tuyg'ularini, ichki dunyoni oynadek ko'rsatib turadi. Rassom talantli bo'lsa, buni ko'rsatib bera oladi. Odamlarni, qiyofalarni kuzataman. Ko'zlaridagi samimiyatni, beg'uborlikni, takabburlikni chizgim kelaveradi. Turli bo'yoqlar esa haqiqatlarni fosh etadi.

Ijodkorning "Kuzgi dala", "Tulpor", "Yaylovdagi sigir", "Nay navosi", "Seplon", "Oila", "Ilhom", "Tong" kabi ko'plab san'at asarlari ko'pchilikning e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lgan. Rassom "Chag'oniyon" gazetasida ham uzoq muddat mehnat qildi.

Ijod ahli nohaqlikka chiday olmaydi. Yuragi g'alayon ko'taradi. Shoir bo'lsa, so'z quroliga aylanadi. Lek u rassom bo'lsa-chi, bizning rassom jamiyatdagi salbiy illatlar, notekisliklar, nohaqlig-u salbiy jihatlarni ko'rib jim tura olmaydi, keskin satira tig'i ostiga olib, karikaturalar ko'rinishida namoyon bo'la boshladi. Ularni ommaga taqdim etish, kamchiliklarni achchiq kulgiga olib, jamiyat ahlini tarbiyalash kerak. Bu yo'lda karikaturalar qo'l keladi. Chizgan karikaturalari "Chag'oniyon", "Surxon tongi" gazetalari, "Mushtum" jurnalida doimiy tarzda e'lon qilinib borildi.

— Esimda, bunga ancha yil bo'ldi, — deya xotiralarini o'rtoqlashadi S. Ahmedov. — Ish bilan poytaxtga ketyapman. Haydovchi bilan tushlik uchun Samarqand viloyatidagi tog' bag'rida joylashgan tamaddixonadamiz. Gurung bilan haydovchi yigit qayerda ishlashimni so'rab qoldi. Yozuvchini, jurnalistni yaxshi tanishadi, ammo rassomni bilishmasa ham kerak dedim-da, odmigina o'zimni tanishtirdim. Ism-sharifimni bilgan yigit hayqirib o'rnidan turib ketdi. Bilsam, men chizgan suratlar, karikaturalarni to'plar, xonasiga ilib chiqqan ekan. Bundan xursand bo'lganman. Ba'zan karikaturalarim sabab obuna bo'lgan gazetxonlar suhbatida bo'lib qolsam ham bu ko'nglimni tog'dek ko'taradi.

Rassomning karikaturalari anchayin taniqli. Uni siz ham ko'p bor ko'rgansiz, mazmunidan kulgansiz, ba'zi illatlarga achinib ham qo'ygansiz. Rassom esa bu ishni maroq va ishtiyoq ila uddalayapti.

Suvonqul Ahmedov talabchan ota. Ammo, erkinlikni ham kanda qilmaydi. Farzandlari Ra'no va Turg'unali ham esini tanibdiki, otasi bilan qo'shilib surat chizishadi. Yumushi chizish, suhbatlari ham suratlar, rassomchilik, ranglar haqida. "Ular boshqa kasb haqida o'ylab ham ko'rmagan" deya kuladi rassom ota. Farzandlar ham otasiga munosib izdosh bo'lishdi, Ra'no tasviriy san'at sirlaridan yoshlarga saboq bersa, Turg'unali hali talaba.

Suvonqul Ahmedov suratlarini qayta va qayta tomosha qilishni, taxlashni yoqtiradi. Rassom ishlayotganda dam oladi. U chegara bilmaydi. Tuyg'ulari tasavvuriga aylanadi-da tasvirlanaveradi. U tabiat bilan, butun borliq bilan yolg'iz qoladi. Mayin esayotgan nasim ajib ohang beradi. Yaralgani esa boqiy kartina, o'sha lahzalardan yodgorlik.

Sayyora ALLAYEVA

Koronavirusga chalingan bolalar uy sharoitida qanday davolanadi?

Sovuq kunlarda o'tkir respirator kasallik bilan og'rish ayniqsa, bolalarda ko'p kuzatiladi.

Biroq hozirgi vaziyatda yana koronavirus kasalligining avj olishi ko'pchilik ota-onalarni xavotirga solib qo'ymoqda.

Xo'sh, bu vaziyatda qanday yo'l tutmoq kerak. Deylik, farzandingizda koronavirus infeksiyasi aniqlandi. Uni uy sharoitida qanday davolash mumkin?

Mutaxassislarning aytishicha, koronavirusning yangi shtammi bolalarda yengil kechmoqda. U asosan tana haroratining ko'tarilishi, tomoq og'rig'i, burun oqishi, yo'tal, bosh og'rig'i belgilari bilan namoyon bo'ladi. Ta'm etilmaydi. Ayniqsa, antibiotiklar virusli infeksiyalarda umuman natija bermaydi. Tana harorati yuqoridagi o'lchovlardan oshganda, ibuprofen yoki paratsetamol ichirish tavsiya etiladi. Kichik yoshli bolalarga isitma tushiruvchi svechalarni ham qo'llasa bo'ladi.

Bunday vaziyatda bilib-bilmay turli dori vositalarini, xususan antibiotiklarni iste'mol qilish ham yaramaydi. Chunki, har bir organizmning o'ziga xos xususiyati, holati va ma'lum bir kasalliklari bo'lishi mumkin. Dori vositalari kimga qanday ta'sir qilishini esa mutaxassis bo'lmasa, bilish mushkul.

Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bosh shifokori, tibbiyot fanlari doktori Abdumannon Abduqayumov uy sharoitida koronavirusga chalingan bolalarga quyidagilarni tavsiya qiladi:

— 3 kungacha har soatda oz-ozdan suyuqlik ichiriladi;

— darmondorilarga boy taom va mahsulotlar beriladi,

— o'z vaqtida va me'yorida uxlashi hamda sovqotib qolmasligi choralari ko'riladi,

— turli vitaminlar iste'mol qilinadi.

Agar bolalarda kasallik davomida nafas va hid bilish qobiliyatining yo'qolishi deyarli kuzatilmaydi. Bolalarda ba'zi hollarda turli toshmalar ham paydo bo'lishi mumkin.

Tana harorati bir yoshgacha bo'lgan bolalarda 38, bir yoshdan oshgan o'g'il-qizlarda esa 38,5 darajadan oshmaguncha, hech qanday dori vositasini berish tavsiya yetishmovchiligi, hansirash, lablarning chetlari ko'karishi, holsizlik, chuqur yo'tal belgilari paydo bo'lsa, oilaviy shifokor yoki mahalliy pediatr bilan maslahatlashgan holda bemorning statsionar tarzda davolanishi masalasi ko'rib chiqilishi kerak.

F.UMIDULLAYEVA

Jarayonning uch bosqichi

Aholini ro'yxatga olish jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi tayyorgarlik bosqichi bo'lib, uch yilga yaqin vaqt davom etadi. Ikkinchisi asosiy bosqich bo'lib, bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari topshiriladi. Bu taxminan ikki oy muddatni tashkil etadi. So'nggi bosqich qariyb uch yil davom etib, olingan ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinib, natijalar e'lon qilinadi.

Ro'yxatga olish jarayonida to'planadigan statistik ma'lumotlar yagona elektron axborotlar tizimiga kiritiladi. Ya'ni bundan bu yog'iga qog'ozbozlikdan voz kechib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratiladi.

Ro'yxatga oluvchilarni tanlash ham eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ma'lumotlarning to'g'riligiga bevosita ayni ular mas'ul bo'ladi va shakllantirilgan ma'lumotlar real bo'lishi shart.

Yoshi va kasbidan qat'i nazar, aholini ro'yxatga oluchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi va zarurat tug'ilsa, ularga qo'shimcha maslahatlar beriladi. Aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi hujjatlarga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq belgilanadi. Jarayonni davlat byudjeti mablag'lari va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtirish ko'zda tutilgan.

Y.TURDIYEV,
Termiz shahar statistika bo'limi boshlig'i

SURXON TONGI va ЗАРЯ СУРХАНА gazetalari tahririyati

MUASSISLAR: Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY'ATI: Jo'rabek TO'RAYEV (hay'at raisi), Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR: Salohiddin NORQOBILOV

MAS'UL MUHARRIR: X. KARSHIYEV

NAVBATCHI MUHARRIR: U. NORMATOV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Reklama va marketing bo'limi: 76 224-23-85

TELEFONLAR: 76 224-22-92, 76 224-22-80

Qog'oz bichimi A-2. Nashr indeksi: 6 500. Bosishga topshirildi — 09:00. Bosildi — 11:00. Adadi 15 620 nusxa. Buyurtma Г-

MANZILIMIZ: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

BOSMAXONA MANZILI: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.